



«OLMALIQ KMK» AKSYADORLIK JAMIYATI
AXBOROT XIZMATI

28.04.2026

BUYRUQ
И П И К А 3

№ 00607

O'zbekiston Respublikasining
“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonunchilik hujjatlari ijrosini
“Olmaliq KMK”AJda samarali tashkil etish choralari to‘g‘risida

“Olmaliq KMK”AJ markaziy apparati hamda tarkibiy korxonalarda (keyingi o‘rinlarda - Kombinat) O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2024-yil 5-noyabrdagi “Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma, ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar va manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reyestrining namunaviy shakllarini tasdiqlash haqida”gi **3569-son buyrug‘i** ijrosini samarali tashkil qilish, bunda Kombinat xodimlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya etilishini ta‘minlash, shuningdek, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni Kombinatda tizimli shaklda joriy etish maqsadida, **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2024-yil 5-noyabrdagi “Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi **Xabarnoma**, ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi **Deklaratsiyalar** va Manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish **Reyestrining namunaviy shakllarini** tasdiqlash haqida”gi **3569-son buyrug‘i** (keyingi o‘rinlarda - Buyruq) **rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.**

2. Boshqaruv raisining o‘rinbosarlari, markaziy apparati bo‘linmalarining rahbarlari, tarkibiy korxonalar, **loyiha ofislari** (ularning tashkiliy-huquqiy shakli hamda bo‘ysunuv va hisobdorlik tartibidan qat’iy nazar) **rahbarlari** o‘zlari rahbarlik qilayotgan soha, yo‘nalish, korxonalar, zavod, fabrika, sex, laboratoriya, departament, boshqarma, bo‘lim, xizmat, byuro, **barcha turdagi loyiha ofislari**, direksiya va boshqa tuzilmalar (keyingi o‘rinlarda - **markaziy apparat bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalar**) faoliyatida, O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-son **Qonuni** (keyingi o‘rinlarda — Qonun) **hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-210-son** (keyingi o‘rinlarda- Qaror) **Qarorida hamda Buyruqda belgilangan qoidalar, talablar va mexanizmlarini samarali joriy etish**, ushbu jarayonda Kombinat tizimida mehnat faoliyatini yuritayotgan **barcha boshqaruv hamda muhandis-texnik toifadagi xodimlarni qamrab olishni ta‘minlash, xususan chet el fuqarolarining (shu jumladan, xorijiy mutaxassislarni ham), bunda ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoyasini ta‘minlash hamda ular uchun zarur tushuntirish va targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish**, bu boradagi ishlarni **tizimli tashkillashtirish uchun shaxsan javobgar va mas‘ul etib belgilansin.**

3. Ushbu Buyruq ijrosini ta‘minlash hamda tizimli shaklda tashkil qilish maqsadida, Boshqaruv raisining xodimlar va ijtimoiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari Kombinat Odob-axloq komissiyasining raisi

S.B.Shermatov raisligida hamda "Olmaliq KMK" AJ Kasaba uyushmasi kengashi raisi A.Dj.Xaydarov bilan (kelishilgan holda), Boshqaruv raisining xavfsizlik bo'yicha o'rinbosari D.A.Kayumov, Komplayens bo'limi boshlig'i Sh.X.Jo'rayevlar bilan birgalikda **Kombinat Muvofiqlashtirish komissiyasining** (keyingi o'rinlarda Muvofiqlashtirish komissiyasi) **tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

4. Muvofiqlashtirish komissiyasi, Kombinatdagi barcha daraja va bo'g'indagi rahbarlar, ijrochilar hamda mas'ullar, **shu jumladan chet el fuqarolari (xorijiy mutaxassislar) tomonidan (ularning egallab turgan lavozimi hamda fuqaroligidan qat'iy nazar)** Agentlik buyrug'i bilan tasdiqlangan Xabarnoma, Deklaratsiyalar shakllarini qonunchilikda belgilangan muddatlarda, to'liq hajmda, sifatli va haqqoniy ma'lumotlarni kiritishga, shuningdek Reyestrni yuritish ishlari ustidan kollegial tartibda **tizimli nazorat, monitoring hamda ta'sir choralarini qo'llash uchun mas'ul qilib belgilansin.**

5. Boshqaruv raisining o'rinbosarlari, o'zlari rahbarlik qilayotgan soha va yo'nalishdagi barcha bo'linmalar va tarkibiy korxonalar rahbarlarini jalb qilgan holda, korxonalar, zavod, fabrika, sex, laboratoriya, departament, boshqarma, bo'lim, xizmat, byuro, **barcha turdagi loyiha ofislari, direksiyalar, (ularning tashkiliy - huquqiy shakli hamda bo'ysunuv va hisobdorlik tartibidan qat'iy nazar)** Agentlik tomonidan tasdiqlangan **3569-son** buyruqning ilovalarida keltirilgan Xabarnoma, Deklaratsiyalarni to'ldirish va Reyestr hisobotlarini majburiy tartibda shakllantirib, tegishli tuzilmaning birinchi rahbari tomonidan tasdiqlangan hisobotlar shakllarini Kombinatning Inson resurslari (HR) departamenti boshlig'i (Sh.Dusimbetov)ga **qonunchilikda belgilangan tartib va muddatlarda taqdim etilishini ta'minlasin.**

6. Inson resurslari (HR) departamenti boshlig'i (Sh.Dusimbetov), **markaziy apparat bo'linmalari, tarkibiy korxonalar hamda loyiha ofislari rahbarlari tomonidan taqdim etilgan** Xabarnomalar, Deklaratsiyalar va Reyestr hisobotlarini to'plash, taqdim etilgan hisobotlarning 3569-son buyruqda belgilangan shakllarga muvofiq ekanligini tekshirish, hisobotlarga kiritilgan ma'lumotlarning to'liq va haqqoniy ekanligini tahlil qilish va tekshirish, muvofiq deb e'tirof etilgan hisobot shakllarini bo'linmalar va xodimlar kesimida tartibga keltirish va umumlashtirilgan holda Komplayens bo'limiga taqdim etishni **ta'minlasin.**

7. Komplayens bodimi, Xabarnoma, Deklaratsiyalar va Reyestrni mazmunan tahlil qilishni, ularda keltirilgan ma'lumotlarni qayta tekshirishni, zaruratga ko'ra mutasaddi bo'linmalar hamda mansabdor shaxslardan qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilishni va olishni, manfaatlar to'qnashuvi holatlari tasdiqlangan taqdirda, **bunday holatlarni ko'rib chiqish hamda bartaraf etish choralarini ko'rish uchun Kombinatning Odob-axloq komissiyasiga taqdim etilishini ta'minlaydi.**

8. Komplayens bo'limi, Kombinatning manfaatlar to'qnashuviga oid hisobotlarini shakllantirish, umumlashtirish hamda vakolatli davlat organlarining so'roviga asosan taqdim etish uchun mas'ul qilib belgilansin.

Bunda, hisobot uchun talab qilinadigan birlamchi axborot, ma'lumot hamda hisobotlarni barcha xodimlarni qamrab olgan holda shakllantirish, shuningdek Namunaviy shakldagi hisobotlarga kiritilgan ma'lumot va axborotlarning to'liq va haqqoniy ekanligi yuzasidan mas'uliyat va javobgarlik ushbu xodim zimmasiga hamda Lining bevosita rahbari zimmasiga yuklatilsin.

9. Kombinat Odob-axloq komissiyasi raisi (S.B.Shermatov) Xabarnoma, Deklaratsiyalar va Reyestrni qonunda **belgilangan muddatlarda taqdim etmagan, taqdim etishdan bo'yin tovlagan, hisobotlarga yolg'on ma'lumotlar kiritgan, belgilangan shakllarga nomutanosib holda to'ldirgan, manfaatlar to'qnashuvi holatlarini yashirgan yoxud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilik talablarini boshqa shaklda bajarmaganlik uchun, bunday xodimlarga nisbatan, shu jumladan, chet el fuqarolari/xorijlik mutaxassislar** (ekspatlar, relokantlar va gastarbayerlar)ga nisbatan

Ma'muriy javobgarlik choralari qo'llash uchun **maxsus vakolatli davlat organi** - O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim etish uchun mas'ul qilib belgilansin.

10. Boshqaruv raisining xodimlar va ijtimoiy masalalar bo'yicha o'rinbosari Kombinat Odob-axloq komissiyasining raisi S.B.Shermatov, "Olmaliq KMK" AJ Kasaba uyushmasi kengashi raisi A.Xaydarov bilan (kelishilgan holda), Komplayens bo'limi boshlig'i Sh.X.Jo'rayev, Yuridik departament boshlig'i S.K.Kasimov, Inson resurslari (HR) departamenti boshlig'i Sh.Dusimbetov, Mehnatga haq to'lash va rag'batlantirish departamenti boshlig'i A.M.Kambarovlar markaziy apparati bo'linmalari, tarkibiy korxonalar hamda loyiha ofislarining xodimlari, **shu jumladan, chet el fuqarolari/xorijlik mutaxassislar** (ekspatlar, relokantlar va gastarbayerlar) bilan muqaddam tuzilgan hamda kelgusida tuziladigan barcha turdagi Mehnat shartnomalariga, shuningdek, Lavozim/ishchi/Mansab yo'riqnomalariga, Qonun va Qaror ijrosini ta'minlash, shuningdek **3569-son** buyruq ilovasi bilan tasdiqlangan shakllariga muvofiq Xabarnoma, Deklaratsiyalarni to'ldirish va Reyestr hisobotlarini yuritish kabi **Xodimlar majburiyatlarini nazarda tutuvchi qoidalarni (bandlarni) bir (1) oylik muddatda kiritishni va ushbu qoidalar (bandlar) bilan xodimlarning shaxsiy imzosini qo'ydirgan holda ularni tanishtirish ishlarini yakuniga yetkazsin.**

11. Kombinatdagi barcha daraja va bo'g'indagi rahbarlar, ijrochilar hamda mas'ullar, shu jumladan, **chet el fuqarolari/xorijlik mutaxassislar tomonidan manfaatlar to'qnashuviga oid** Xabarnoma, Deklaratsiyalar shakllarini to'ldirish va taqdim etishdan bo'yin tovlash, Reyestrni yuritishdan bosh tortish, Deklaratsiyalar va Xabarnomalarni to'ldirish va taqdim etish muddatlariga amal qilmaslik, sababsiz ravishda yoxud qasddan noto'g'ri ma'lumotlarni kiritish, mavjud (real) va ehtimoliy (potensial) manfaatlar to'qnashuvi holatlarini yashirish sifatida baholanadi hamda aybdor deb topilgan shaxslarga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi **Kodeksning 193⁴-moddasi** "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonunchilik talablarini bajarmaslik" **moddasida belgilangan sanksiyalar qo'llanishi to'g'risida rasman ogohlantirilgan deb hisoblansin.**

12. Xabarnoma va deklaratsiyalar shakllarini to'ldirish hamda taqdim etishdan bo'yin tovlagan, reyestr yuritishdan bosh tortgan, qonunchilikda belgilangan muddatlarga amal qilmagan yoki sababsiz hamda qasddan noto'g'ri ma'lumot kiritishga uringan xodimlarga nisbatan Inson resurslari (HR) departamenti hamda Komplayens bo'limining qo'shma xizmat xati asosida, "Olmaliq KMK" AJ Kasaba uyushmasi kengashi raisi A.Xaydarov bilan (kelishilgan holda), Kombinat **Odob-axloq komissiyasi** yoxud **"Ish beruvchi"** tomonidan **Mehnat kodeksiga muvofiq**, Xodimning mehnat shartnomasi yoxud Lavozim (Mansab/Ishchi) yo'riqnomasida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganlik uchun **intizomiy jazo choralari qo'llash ta'minlansin.**

13. Kombinatda manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarni **bartaraf etish ishlari**, "Olmaliq KMK" AJning 2022-yil 24-oktyabrdagi **001228-son Buyrug'iga muvofiq, Kombinatning Odob-axloq komissiyasi** (S.B.Shermatov), "Olmaliq KMK" AJ Kasaba uyushmasi kengashi raisi A.Xaydarov bilan (kelishilgan holda), Inson resurslari (HR) departamenti (Sh.I.Dusimbetov), Komplayens bo'limi (Sh.X.Jo'rayev) hamda Yuridik departament (S.K.Kasimov)lar tomonidan **amalga oshirilishi ma'lumot o'rnida qabul qilinsin.**

14. Raqamlashtirish departamenti boshlig'i v.v.b. V.Irismetov **bir oylik muddatda** Kombinatning **axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari, savdo va xaridlar platformalari va boshqa dasturiy ta'minotlarini** Qonun, Qaror hamda Buyruq bilan belgilangan talablarga muvofiqligini tahlil qilish va o'rganish, zaruratga ko'ra, ularni takomillashtirish, chunonchi manfaatlar to'qnashuviga oid Deklaratsiyalarni to'ldirish, Xabarnoma shaklini to'ldirish va taqdim etish, shuningdek Reyestrni yuritish, manfaatlar to'qnashuviga oid hisobotlarni shakllantirish, umumlashtirish, taqdim etish, taqdim etilgan hisobotlar va ma'lumotlarni tekshirish va tahlil qilishning texnik imkoniyatini beruvchi raqamlashtirilgan

tizimni yaratish, bunda **manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bilan bog‘liq barcha tartib-taomillarni bosqich va jarayonlarni raqamlashtirish choralari**ni ko‘rsin.

15. Boshqaruv raisining o‘rinbosarlari, Kombinat markaziy apparatining barcha bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalarining birinchi rahbarlari, shu jumladan, loyiha ofislari, direksiya (ularning tashkiliy-huquqiy shakli yoxud bo‘ysunuv va hisobdorlik tartibidan qat’iy nazar) **o‘zi rahbarlik qilayotgan soha va yo‘nalishlar, bo‘linmalar yoxud korxonalar, shuningdek o‘z bo‘ysunuvidagi xodimlar kesimida ushbu buyruq ijrosini to‘liq, samarali va tizimli tashkil etish uchun shaxsan mas’ul va javobgar etib belgilansin.**

16. Ofis menejer xizmati boshlig‘i v.b. N.Asrayeva ushbu buyruq nusxalarini Boshqaruv raisining o‘rinbosarlariga, Kombinat markaziy apparatining barcha bo‘linmalari, tarkibiy korxonalar rahbarlariga, shu jumladan, loyiha ofislari, direksiya (ularning tashkiliy-huquqiy shakli yoxud bo‘ysunuv va hisobdorlik tartibidan qat’iy nazar) tezkor yetkazilishini ta’minlasin.

17. Mazkur buyruq ijrosini samarali tashkil etishga javobgar etib Boshqaruv raisining xodimlar va ijtimoiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari va Kombinat Odob-axloq komissiyasi raisi S.Shermatov, Boshqaruv raisining xavfsizlik bo‘yicha o‘rinbosari D.Kayumov, shuningdek “Olmaliq KMK”AJ Komplayens bo‘limi boshlig‘i Sh.Jo‘rayevlar belgilansin.

18. Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan nazoratni o‘z zimmamda qoldiraman

Boshqaruv raisi

A. Xursanov

**“Olmaliq KMK”AJda Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi
Xabarnoma, Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi Deklaratsiyalar
hamda Manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish Reyestrini yuritish ishlarini
Muvofiqlashtirish bo‘yicha komissiya
TARKIBI**

T/R	F.I.Sh.	Muvofiqlashtirish komissiyasining Tarkibi	Lavozimi
1.	SHERMATOV Sa‘di Baxtiyarovich	Komissiya raisi	Boshqaruv raisining xodimlar va ijtimoiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari – “Olmaliq KMK”AJ Odob-axloq komissiyasi raisi
2.	XAYDAROV Abdurashid Djaynakovich (kelishilgan holda)	Muvofiqlashtirish komissiyasi raisining o‘rinbosari	“Olmaliq KMK”AJ Kasaba uyushmasi kengashi raisi
3.	KAYUMOV Daniyar Abrarovich	Muvofiqlashtirish komissiyasi raisining o‘rinbosari	Boshqaruv raisining xavfsizlik bo‘yicha o‘rinbosari
4.	TURANOVA Gulnora Barkinovna	Muvofiqlashtirish komissiyasining kotibi	Inson resurslari (HR) departamenti xodimi
5.	ISMAYILOV Kamol Baxodirovich	Muvofiqlashtirish komissiyasining a‘zosi	Boshqaruv raisining tijorat, xaridlar va mahalliy lashtirish bo‘yicha o‘rinbosari
6.	IRISMETOV Valiyor Zaxirjanovich	Muvofiqlashtirish komissiyasining a‘zosi	Raqamlashtirish departamenti direktori
7.	JO‘RAYEV Shuhrat Xolbayevich	Muvofiqlashtirish komissiyasining a‘zosi	Komplayens bo‘limi boshlig‘i
8.	KASIMOV Sandjar Kadirovich	Muvofiqlashtirish komissiyasining a‘zosi	Yuridik departament boshlig‘i
9.	DUSIMBETOV Shavkat Ibragimovich	Muvofiqlashtirish komissiyasining a‘zosi	Inson resurslari (HR) departamenti boshlig‘i
10.	KAMILOV Abror Baxtiyarovich	Muvofiqlashtirish komissiyasining a‘zosi	Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i
11.	AXMETOV Aydarbek Axmetovich	Muvofiqlashtirish komissiyasining a‘zosi	Risklarni boshqarish bo‘limi boshlig‘i
12.	KIM Pavel Leonidovich	Muvofiqlashtirish komissiyasining a‘zosi	Ichki audit bo‘limi rahbari

T/R	F.I.Sh.	Muvofiqlashtirish komissiyasining Tarkibi	Lavozimi
13.	MAVLANOV Azamat Abdishukurovich	Muvofiqlashtirish komissiyasining a'zosi	“Olmaliq KMK” AJ Yoshlar ittifoqi raisi
14.	YULDASHEV Bahodir Baxtiyarovich	Muvofiqlashtirish komissiyasining a'zosi	Moddiy-texnik ta'minot boshqarmasi boshlig'i
15.	UMARALIYEVA Kamola Raximjonovna	Muvofiqlashtirish komissiyasining a'zosi	Boshqaruv raisining ma'naviy- ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, qonun hujjatlariga davlat tilida rioya etilishini ta'minlash bo'yicha Maslahatchisi
16.	ABDULLAYEV Ilxom Izzatullayevich	Muvofiqlashtirish komissiyasining a'zosi	Ijtimoiy ishlar departamenti boshlig'i
17.	NAZAROVA Shaxista Xasanovna	Muvofiqlashtirish komissiyasining a'zosi	Investorlar bilan aloqalar va korporativ munosabatlar xizmati boshlig'i
18.	KARSHIBAYEVA Umida Maxkamovna	Muvofiqlashtirish komissiyasining a'zosi	Axborot xizmati boshlig'i
19.	KARIMOV Daniyar Dilmuratovich	Muvofiqlashtirish komissiyasining a'zosi	O'quv markazi direktori

Izoh: "Olmaliq KMK" AJ Muvofiqlashtirish komissiyasining rahbar yoxud a'zolari boshqa ishga o'tgan yoki ularning lavozimi (vazifasi) o'zgargan taqdirda, uning o'rniga tayinlangan yoki mansab (lavozim) bo'yicha vazifasini bajaruvchi xodim Kombinat Muvofiqlashtirish komissiyasining a'zosi sifatida faoliyat yuritadi.